

VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


2022- yilning yanvar-dekabrida tashqi savdo aylanmasi 547,5 mln. AQSH dollari tashkil etdi, shundan 303,4 mln. AQSH dollarini eksport operatsiyalari, 244,1 mln. AQSH dollarini - import operatsiyalari hissasiga to'g'ri keldi.

Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini 59,3 mln. AQSH dollari tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-dekabrida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

| | <i>Yanvar-dekabr</i> | | <i>2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida</i> |
|-------------------------------|----------------------|-----------------|--|
| | <i>2021- y.</i> | <i>2022- y.</i> | |
| Tashqi savdo aylanmasi | 565,7 | 547,5 | 96,8 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| MDH davlatlari | 169,0 | 172,0 | 101,8 |
| boshqa davlatlar | 396,7 | 375,5 | 94,6 |
| Eksport | 270,0 | 303,4 | 112,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| MDH davlatlari | 101,2 | 104,0 | 102,7 |
| boshqa davlatlar | 168,8 | 199,4 | 118,1 |
| Import | 295,7 | 244,1 | 82,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| MDH davlatlari | 67,9 | 68,1 | 100,3 |
| boshqa davlatlar | 227,8 | 176,0 | 77,3 |

**2022- yilning yanvar-dekabrda viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(*umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida*)




**Yanvar-dekabr oylarida Qashqadaryo viloyati
eksport-importi tarkibi**

| | <i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i> | | | | <i>2021- yilga nisbatan foiz hisobida</i> |
|---|---|-------------------------------|--------------------------------|-------------------------------|---|
| | <i>2021- yil</i> | | <i>2022- yil</i> | | |
| | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>jamidagi ulushi, %</i> | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>jamidagi ulushi, %</i> | |
| Eksport tarkibi | 270,0 | 100,0 | 303,4 | 100,0 | 112,3 |
| paxta tolasi | | | | | |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 53,1 | 19,7 | 59,7 | 19,7 | 112,4 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 10,5 | 3,9 | 3,4 | 1,1 | 31,9 |
| qora va rangli metallar | 0,9 | 0,3 | 0,8 | 0,2 | 89,2 |
| energiya manbalari va neft mahsulotlari | 26,2 | 9,7 | 10,9 | 3,6 | 41,4 |
| mashina va uskunalar | 0,5 | 0,2 | 2,9 | 1,0 | 5,2 m. |
| xizmatlar | 9,2 | 3,4 | 5,8 | 1,9 | 63,7 |
| boshqalar | 169,6 | 62,8 | 219,9 | 72,5 | 129,7 |

davomi

| | <i>Eksport va import operatsiyalari hajmi va ulushi</i> | | | | <i>2021- yilga nisbatan foiz hisobida</i> |
|---|--|---------------------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|--|
| | <i>2021- yil</i> | | <i>2022- yil</i> | | |
| | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>mln. AQSH doll.</i> | <i>mln. AQSH doll.</i> | |
| Import tarkibi | 295,7 | 100,0 | 244,1 | 100,0 | 82,6 |
| oziq-ovqat mahsulotlari | 11,4 | 3,9 | 14,8 | 6,1 | 129,6 |
| kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar | 30,9 | 10,4 | 35,4 | 14,5 | 114,5 |
| energiya manbalari va neft mahsulotlari | 8,1 | 2,7 | 9,3 | 3,8 | 116,2 |
| qora va rangli metallar | 15,2 | 5,1 | 11,5 | 4,7 | 75,6 |
| mashina va uskunalar | 194,2 | 65,7 | 146,9 | 60,2 | 75,6 |
| xizmatlar | 1,4 | 0,5 | 0,8 | 0,3 | 58,1 |
| boshqalar | 34,5 | 11,7 | 25,4 | 10,4 | 73,5 |

Tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)






**QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASINING YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN
DAVLATLAR**

(2022- yil yanvar- dekabr oylari, mln. AQSh dollari)



Rossiya
Federatsiyasi

TSA – 92,8
Eksport – 64,1
Import – 28,7



Xitoy Xalq
Respublikasi

TSA – 90,8
Eksport – 14,7
Import – 76,1



Turkiya

TSA – 139,6
Eksport – 108,5
Import – 31,1



Qozog'iston

TSA – 29,0
Eksport – 12,5
Import – 16,5



Eron Islom
Respublikasi

TSA – 19,2
Eksport – 15,9
Import – 3,3



Pokiston

TSA – 16,0
Eksport – 15,8
Import – 0,2



Germaniya

TSA – 17,7
Eksport – 16,5
Import – 0,2



Yaponiya

TSA – 12,0
Eksport – 0,2
Import – 11,8



Hindiston

TSA – 12,9
Eksport – 9,1
Import – 3,8



Qirg'iz
Respublikasi

TSA – 24,1
Eksport – 15,2
Import – 8,9

Qashqadaryo viloyati, jahonning 73 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (25,5 %), Rossiya Federatsiyasida (16,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (16,6 %), Qozog'istonda (5,3 %), Qirg'iz Respublikasi (4,4 %), Eron Islom Respublikasi (3,5 %) va Germaniya (3,2 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.


TSA da so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSAda Qirg‘iz Respublikasi, Afg‘oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Qirg‘iz Respublikasi davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

TO‘RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (yanvar-dekabr oylari, mln. AQSH dollari)




Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (139,6 mln. AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasi (92,8 mln. AQSH dollari), Qirg‘iz Respublikasi (24,1 mln. AQSH dollari), Eron Islom Respublikasi (19,2 mln. AQSH dollari), Pokiston (16,0 mln. AQSH dollari), Hindiston (12,9 mln. AQSH dollari), Afg‘oniston (11,4 mln. AQSH dollari), va Polsha (11,1 mln. AQSH dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 4 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,
jamiga nisbatan foizda**




**Tovar va xizmatlarning import tarkibi,
jamiga nisbatan foizda**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 53017,0 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 45719,9 ming AQSH dollariga eksport qilindi (2021- yilning mos davriga nisbatan 62,1 % ni tashkil etdi).

Shuningdek, 17656,5 tonna uzum 15715,5 ming AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 3737,9 tonnaga ko'paygan.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (26,7 %), Qozog'iston (5,8 %) va Pokiston (2,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.